

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND  
DAVLAT UNIVERSITETI  
TABIY FANLAR FAKULTETI  
ZOOLOGIYA KAFEDRASI

**Agotsenozlarda Staphyliniidae oilasiga mansub qo'ng'izlar faunasi**  
**BITIRUV MALAKAVIY ISH**

Bajaruvchi: Davronova M.

Ilmiy rahbar: dots. Xalimov F. Z.

Bitiruv malakaviy ishi Zoologiya kafedrasida bajarildi.

Kafedraning 2016 yil \_\_\_\_\_dagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga  
tavsiya etildi (bayonnoma № ).

Kafedra mudiri: \_\_\_\_\_ dots. Halimov F. Z.

Bitiruv malakaviy ish YaDAKning 2016 yil \_\_\_\_\_dagi majlisida himoya qilindi  
va foizga baholandi (bayonnoma № ).

YaDAK raisi

SAMARQAND – 2016

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
1. Staphylinidae oilasigamansub qo‘ng‘izlarning umumiy tavsifi, morfologiyasi, biologiyasi, tarqalishi va ahamiyati (Alabiyotlar sharhi) ....	6
2. Tadqiqot ob‘ekti, uslublari va sharoitlari .....	27
2.1. Tadqiqot ob‘ekti, maqsadi va vazifasi .....	27
2.2. Tadqiqot uslublari .....	27
2.3. Tajriba maydonining tuproqlari .....	28
2.4. Tadqiqot o‘tkaziladigan joyning tabiiy iqlim sharoiti .....	30
3. Tadqiqot natijalari.....	32
3.1. Sabzavot ekinlari agrotsenozlarida kaltaustqanotli qo‘ng‘izlarning tur tarkibi .....	32
3.2. Staphylinidae oilasiga mansub qo‘ng‘izlarning mavsumiy dinamikasi va trofik aloqalari.....	38
Xulosalar .....	44
Tavsiyalar .....	46
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati .....	47

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Qishloq xo'jaligi ekinlarini zararkunandalardan himoya qilishning biologik usuli asosida biosenozda oziq aloqalari orqali bog'langan zararkunanda va entomofaglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlardan foydalanish yotadiki, bu munosabatlar uzoq davom etgan evolyusiya jarayonida qaror topgan. Hozirgi tasavvurlarga ko'ra, Yerdagi hayot nafaqat ayrim turlarning ma'lum muhit sharoitlariga moslashishi, balki biosenozlarda turli turlar o'rtasidagi evolyusion shakllangan o'zaro aloqalar natijasidir. Hayot shakllarining xilma-xilligi – biosenoz turg'unligini ta'minlovchi muhim mexanizmdir. Tabiiy biosenozlar nisbatan barqaror ekologik sistemalar hisoblanadi hamda turlarining xilma-xilligi va o'z-o'zini boshqarishi bilan tavsiflanadi.

Agrosenozlarda, yani ekin maydonlarida boshqacha sharoit yuzaga kelgan. Agrosenozlarning birlamchi tabiiy biosenozlardan farqi shundaki, bu yerdagi o'simlik qoplami inson tomonidan shakllantiriladi va bitta yoki bir nechta turdan iborat bo'ladi, jamoaning turg'unligi inson tomonidan ushlab turiladi va agrosenoz mustaqil yashay olmaydi, biologik mahsuldorlik doimiy ravishda chiqarib ketiladi va uning o'rnini agrotexnik tadbirlar bilan to'ldiriladi. Shu sababdan agrobiosenozlarda ayrim turga mansub fitofaglar sonining haddan tashqari ko'payib ketishi tez-tez kuzatilib turadi va neytral turlar va entomofaglar tur tarkibi kambag'allashadi.

Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi va jadallashuvi agrobiosenozlarda ko'pgina ashaddiy zararkunandalar uchun sharoitning qulaylashuviga va entomofaglar uchun yashash sharoitining yomonlashuviga olib keladi. Bu holat fitofaglar sonining va zararining ortishiga sabab bo'ladi.

Hozirgi davrda qishloq xo'jalik ekinlarini zararkunanda hasharotlardan himoya qilishda turli kurash choralarining uyg'unlashgan tizimidan foydalanishga asosiy e'tibor berilmoqda. Bunday uyg'unlashgan tizimda asosiy e'tibor zararkunandalarning tabiiy kushandalari- yirtqich va parazit entomofaglarga qaratiladi.

Entomofaglar – har qanday tabiiy va madaniy biosenozlar faunasining doimiy va zaruriy a'zovidir. Hasharotlar orasida entomofaglar ikkita katta guruhdan: yirtqich va parazitlardan iborat bo'lib, ular o'zaro oziqlanish usuli va fitofaglar bilan o'zaro munosabati tavsifi bilan farq qiladi.

Yirtqich entomofag turlar hasharotlar sinfining 16 ta turkumi vakillari orasida uchraydi. Oziqlanish usuli va o'ljaga ta'siri jihatidan yirtqich entomofaglar bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ozuquga ehtiyojini qondirish uchun yirtqichlar juda katta miqdordagi o'lja individlarini iste'mol qiladi. Bu o'z novbatida o'ljani topish, uning qarshiligini yengish va hokazolar uchun juda katta energiya sarfi bilan bog'liq. Shu sababli yirtqich hasharotlar uchun oziq spektrining kengligi xosdir.

Yirtqich hasharotlar orasida turlarining xilma-xilligi va ko'p sonliligi bilan qo'ng'izlar alohida ajralib turadi. Agrosenozlarda tarqalgan yirtqich qo'ng'izlar ko'pchilik zararkunandalar sonining tabiiy boshqarilishida muhim o'rin tutadi.

Turli agrosenozlarda yirtqich qo'ng'azlarning tur tarkibi va ekologik xususiyatlarini to'liq tahlil qilish bu qo'ng'izlardan zararkunandalar sonini boshqarishda foydalanishning dastlabki qadami hisoblanadi.

Agrosenozlarda tarqalgan yirtqich qo'ng'izlarning aksariat qismi Carabidae, Staphylinidae va Coccinilliidae oilalariga mansub hasharotlardir. Agrosenozlarda tarqalgan Carabidae va Coccinilliidae oilalariga mansub hasharotlarni o'rganish bo'yicha talaygina tadqiqotlar o'tkazilgan. Ammo Staphylinidae, ya'ni kaltaustqanotli qo'ng'izlar oilasiga mansub hasharotlarni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hajmi juda ham qisqa. Bu qo'ng'izlarning hayot tarzi, trofik aloqalari to'liq o'rganilmagan.

**Tadqiqotning maqsadi va vazifalari.** Bitiruv malakaviy ishining asosiy maqsadi Tayloq tumuni agrosenozlarda tarqalgan Staphylinidae oilasiga mansub yirtqich qo'ng'izlarning tur tarkibi, ekologik xususiyatlari, mavsumiy dinamikasi, dominant turlari va ularning zararkunanda hasharotlar sonini kamaytirishdagi ahamiyatini o'rganishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun oldimizga quyidagi vazifalarni qo'ydik:

- 1) Stafilin qo'ng'izlarni o'rganishga bag'ishlangan ma'lumotlarni ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilish.
- 2) Turli agrosenzlarda Staphylinidae oilasiga mansub qo'ng'izlarning tur tarkibini aniqlash;
- 3) ushbu oilalarga mnsub qo'ng'izlar orasida eng ko'p tarqalgan turlarni va ularning dominantlik darajasini aniqlash;
- 4) Stafilin qo'ng'izlarning mavsumiy dinamikasini o'rganish;
- 5) agrosenzlarda stafilin qo'ng'izlarning trofik aloqalarini tahlil qilish;
- 6) Staphylinidae oilasiga mansub yirtqich qo'ng'izlarning turli agrosenzlarda tarqlish xususiyatlarini tahlil qilish;

**Tadqiqotning predmeti va ob'yekti.** Tadqiqot predmeti (mavzu va uning rejasi) zoologiya va entomologiya fanlariga qarashli bo'lib, agrosenzlarda tarqalgan stafilinidae oilasi qo'ng'izlari tur tarkibi va ulardan foydalanish istiqbollari qaratilgan.

Tadqiqot ob'yekti - agrosenzlarda tarqalgan Staphylinidae oilasiga mansub qo'ng'izlar.

**Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijasida aniqlangan ma'lumotlar ushbu hududda tarqalgan yirtqich qo'ng'izlar faunasi haqidagi ma'lumot sifatida muhimdir. Bundan tashqari, agrosenzlardagi yirtqich qo'ng'izlarning tur tarkibi, trofik aloqalari va mavsumiy dinamikasi haqidagi ma'lumotlar zararkunandalarga qarshi kurash tizimini ishlab chiqishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**1. Staphylinidae oilasigamansub qo'ng'izlarning umumiy tavsifi,  
morfologiyasi, biologiyasi, tarqalishi va ahamiyati  
(Alabiyotlar sharhi)**

Kaltaustqanotli qo'ng'izlar yoki stafilinidlar oilasi (*Staphylinidae*) (ba'zan ularni yirtqich qo'ng'izlar oilasi deb ham atashadi) qo'ng'izlar turkumining eng katta oilasidir. 2009 yilgacha bu oila 45000 ga yaqin turlardan iborat bo'lgan. 2009 yilda lichinkalar va imogalarining 211 ta belgisi bo'yicha solishtirish o'tkazilgandan keyin, oldin alohida oila hisoblangan Ssimeniidlar (*Csimeniidae*) oilasi stafilinlar oilasining kenja oilasi sifatida tan olindi [37]. Shundan keyin, bu oilaga kiradigan turlarning soni 55000 turga etdi. SHu davrgacha uzunburunli qo'ng'izlar oilasi eng katta hisoblanar edi (51000 tur). Hozirgi davrda stafilinidlar oilasi 32 ta kenja oila (1 ta kenja oila vakillari faqat qazilma holda uchraydi), 400 ga yaqin triba, 3800 atrofida avlodlarni o'zida birlashtiradi. Eng katta kenja oilalari quyidagilar: *Aleocharinae* (12182 tur, 1740 avlod), *Pselaphinae* (8415, 1103), *Staphylininae* (6642, 282), *Paederinae* (5962, 225), *Steninae* (2109, 2), *Osoriinae* (2058, 105), *Oxytelinae* (2000, 48) [38]. Bundan tashqari, har yili stafilin qo'ng'izlarning 400 ga yaqin yangi turlari kashf qilinmoqda. Ayrim olimlarning fikricha, tropik mintaqada tarqalgan stafilinlarning 3/4 qismi hozirgacha tavsiflanmagan.

1.1.-Jadval

***Staphylinidae* oilasining kenja oilalari ro'yxati**

(Lee H. Herman bo'yicha, 2001).

1	<i>Aleocharinae</i>	12	<i>Neophoninae</i>	23	<i>Pselaphinae</i>
2	<i>Apateticinae</i>	13	<i>Olisthaerinae</i>	24	<i>Pseudopsinae</i>
3	<i>Dasycerinae</i>	14	<i>Omaliinae</i> (= <i>Brathininae</i> )	25	<i>Scaphidiinae</i>
4	<i>Empelinae</i>	15	<i>Osoriinae</i>	26	<i>Scydmaeninae</i>
5	<i>Euaesthetinae</i>	16	<i>Oxyporinae</i>	27	<i>Solieriinae</i>

6	<i>Glypholomatinae</i>	17	<i>Oxytelinae</i>	28	<i>Staphylininae</i>
7	<i>Habrocerinae</i>	18	<i>Paederinae</i>	29	<i>Steninae</i>
8	<i>Leptotyphlinae</i>	19	<i>Phloeocharinae</i>	30	<i>Tachyporinae</i>
9	<i>Megalopsidiinae</i>	20	<i>Piestinae</i>	31	<i>Trichophyinae</i>
10	<i>Micropeplinae</i>	21	<i>Proteininae</i>	32	<i>Trigonurinae</i>
11	<i>Microsilphinae</i>	22	<i>Protopselaphinae</i>		

Stafilin qo'ng'izlari ancha qadimiy qo'ng'izlarda hisoblanadi. Ularning qazilma holdagi qoldiqlari trias davri yotqiziqalaridan topilgan (220 mln. yil, *Leehermania prorova*). Bundan tashqari bo'z va yura davrlariga (*Mesapatetica aenigmatica*), Oligotsen va miotsen davrlariga oid qoldiqlari ham topilgan [39,40].

Bu hasharotlar er yuzining eyarli barcha hududlarida uchraydi. Rossiyada ushbu oilaning 23 ta kenja oilasiga mansub 2300 turi, Chexiyada 1328 turi, Litvada 455 turi, Kanada va Alyaskada 1197 turi, Meksikada 1938 turi qayd qilingan. O'zbekistonda bu oilaga mansub qo'ng'izlar deyarli o'rganilmagan.



*Paedenus riparius*  
(7,5-8 mm)



*Emus hirtus*  
(18-28 mm)



*Ocypus plons*  
(22-32 mm)

#### 1.1.-Rasm. Staphylinidae oilasiga mansub ayrim qo'ng'izlarning o'lchami

**Morfologik xususiyatlari.** Qo'ng'izlarning kattaligi 0,5 dan 50 mm gacha, lekin ko'pchiligining o'lchami 8 mm dan oshmaydi. Ularning o'ziga xos xususiyati

ustki qanotlarining kalta bo'lishidir ( ustqanotlari qorining 4,5 va 6-bo'g'imlarini qoplamaydi). Tanasi ingichka. Rangi ko'p hollarda qizg'ish-jigarrang, qoramtir, ba'zan, sariq va qizil chiziq yoki dog'lari bo'ladi. Qorin qismi 6-7 ta harakatchan sigmentlardan iborat. Mo'ylovlari, odatda, ipsimon ( ba'zilarida to'g'nog'ichsimon). Tanasi silliq, ba'zan burmalari, mikrochuqurchalari, tukchalari, mikrotangachalari bo'lishi mumkin.

Kalta ustqanotlar qo'ng'izlarning boshqa oilalarida ham uchrashi mumkin (Masalan, Histeridae oilasida, Ptiliidae oilasining *Limulodes* avlodida, Silphidae oilasining *Nicrophorus* avlodida, *Cantharidae* oilasining *Trypherus* avlodida, *Nitidulidae* oilasining *Conotelus* avlodida, *Rhipiphoridae* oilasining *Rhipidius* avlodida, *Meloidae* oilasining *Meloe* avlodida, *Salpingidae* oilasining *Inopeplus* avlodida va boshqalarda). Lekin, ularda qorin bo'limi uncha harakatchan emas va ustqanoslari o'tkir burchak hosil qilmaydi. SHu bilan birga, stafilinlarning ayrim guruhlarida qoidadan chetga chiqishlar kuzutiladi: *Micropeplinae* i *Pselaphinae* kenja oilalari vakillari orasida qorin qismi kam harakatchan bo'lgan turlar, *Scaphidiinae* kenja oilasi vakillari orasida tanasi keng bo'lgan va ustqanotlari qornini deyarli yopib turadigan turlar, *Scydmaenidae* kenja oilasi vakillari orasida ustqanotlari qornini to'liq yopib turadigan turlar uchrab turadi [19,39].

Mo'ylovlari 11 bo'g'imli, ba'zan ayrim bo'g'imlari reduksiya uchragan bo'ladi. Masalan, *Micropeplinae* kenja oilasi vakillarida mo'ylovlari 9 bo'g'imli turlari, *Pselaphinae* kenja oilasi vakillarida mo'ylovlari 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11 bo'g'imli turlari, *Aleocharinae* kenja oilasi vakillarida mo'ylovlari 9, 10 va 11 bo'g'imli turlari, *Euaesthetinae* kenja oilasi vakillarida mo'ylovlari 10, 11 bo'g'imli turlari, *Leptotyphlinae* kenja oilasi vakillarida mo'ylovlari 10 va 11 bo'g'imli turlari uchraydi. Mo'ylovlar ipsimon yoki yaxshi ifodalanmagan to'g'nag'ichsimon (*Apateticinae*, *Steninae*, *Glypholomatinae*, *Omaliinae*, *Proteininae*, *Dasycerinae*, *Pselaphinae*, *Scaphidiinae*, *Euaesthetinae*, *Leptotyphlinae*, *Aleocharinae*), ba'zan aniq to'g'nag'ichsimon (*Empelinae*,

*Micropeplinae, Microsilphinae, Megalopsidiinae*). Mo'ylovlar 1-6 yoki ko'p (ko'pincha 3-5) bo'g'imli [38,40,41,42].

Oyoqlari, odatda, 5 bo'g'imli (5-5-5 formulaga bo'ysunadi), ba'zan 5-5-4 holat (*Euaesthetinaevakillarida*), 4-5-5 yoki 4-4-5 holat (ko'pchilik *Aleocharinae*), 4-4-4 holat (ayrim *Omaliinae, Proteininae, Micropeplinae, Aleocharinae, Osoriinae, Oxytelinae* va *Euaesthetinae*), 3-4-4 holat (ayrim *Aleocharinae*), 3-3-3 holat (ayrim *Neophoninae, Dasycerinae, Protopselaphinae*; ko'pchilik *Pselaphinae*), 2-2-2 holat (ayrim *Aleocharinae, Osoriinae, Oxytelinae*, va *Leptotyphlinae*, va ba'zi bir *Pselaphinae*), yoki 5-4-4 holat (*Staphylininae, Atanygnathus*) uchrab turadi.



1



2



3



4



5



6

1.2.-Rasm.Staphylinidae oilasiga mansub ayrim yirtqich qo'ng'izlarning tashqi ko'rinishi (kattalashtirilgan).

1-2-Arpedium avlodi vakillari; 3,6-Stenus avlodi vakillari; 4- Acylophorus wagenschieberi; 5-Scaphisoma indubium

Orqa qanotlari, odatda, yaxshi rivojlangan (qo'ng'izlar uchadi), ustqanotlar ostida ixcham yig'iladi. Stafilinlarning turli guruhlarida orqa qanotlarning turli darajada reduksiyasi kuzatiladi, shu jumladan, *Leptotyphlinae* kenja oilasining barcha vakillarida. Ba'zi hollarda qanotlarning dimorfizmi, polimorfizmi, ya'ni qanotlar assimetriyasi kuzatiladi.

Qorin bo'limi olti yoki etti sigmentdan iborat bo'ladi, sternitlari ko'rinib turadi va harakatchan bo'ladi. Ayrim hollarda qorin 4 sigmentdan (*Pselaphinae* kenja oilasi urg'ochilarida, ba'zi *Microsilphinae* va *Scaphidiinae* vakillarida, hamda *Habrocerinae* kenja oilasi erkaklarida) yoki 3 sigmentdan (*Cyathigerini*, *Pselaphinae*) iborat bo'ladi [42,43].

**Ekologiyasi.** Stafilin qo'ng'izlari har xil sharoitlarda: tuproq, go'ng, torf, daraxt po'stlog'i, tuproq usti to'shalmasi, sut emizuvchi hayvonlarning inlari, qushlar uyasi, jamoa bo'lib yashovchi hasharotlar inlari (chumoli, arilar, termitlar), g'orlar, o'simliklar, gullar va boshqa joylarda yashaydi. Ko'pchilik vakillari o'tkir hidli va qitiqlovchi moddalar ajratadi va dushmanlarini qo'rqitadi. Stafilinlarning aksariat turlari yirtqich, lekin chiriyotgan o'simlik qoldiqlari bilan oziqlanadigan saprofaglari va o'simlik changlari, gullari, suvo'tlar va boshqalar bilan oziqlanadigan fitofaglari ham uchraydi. Saprofag oziqlanish *Piestinae*, *Osoriinae*,

*Proteininae* kenja oilalarining asosiy oziqlanish usullaridan biri bo'lib, bu qo'ng'izlarda mikofagiya ham uchraydi. Mikofagiya *Oxyporinae*, *Scaphidiinae* kenja oilalarida hamda *Tachyporinae*, *Aleocharinae* kenja oilalarining ayrim vakillarida ham rivojlangan. Fitofagiya *Oxytelinae* kenja oilasining ba'zi turlarida uchraydi va ulardan *Bledius* avlodining imago va lichinkalari diatom suvo'tlari bilan oziqlanadi, *Apocellus* avlodining ayrim turlari esa o'simlik gullar bilan oziqlanadi. Saprofag oziqlanish yirtqich oziqlanish zaminida paydo bo'lgan va stafilinlarning bir nechta kenja oilalarida uchraydi (ko'pchilik *Tachyporinae*, *Aleocharinae*, *Pselaphinae*, *Euaesthetinae*, *Steninae*, *Paederinae* va *Staphylininae*). Oilaning aksariat turlari fakultativ yirtqichlar hisoblanadi. Stafilinlar orasida ma'lum o'lja turiga ixtisoslashgan turlari ham ko'plab uchraydi. Masalan, *Scydmaeninae* va *Oligota* avlodi vakillari

(*Aleocharinae* kenja oilasi) kanalar bilan, *Erichsonius* avlodi vakillari esa (*Staphylininae* kenja oilasi) yumaloq chuvalchanglar bilan, *Odontolinus* va ba'zi *Belonuchus* va *Platydracus* avlodi vakillari (*Staphylininae* kenja oilasi) esa chivinlarning lichinka va g'umbaklari bilan oziqlanadi. *Aleochara* avlodi turlari esa (*Aleocharinae* kenja oilasi) pashshalarning g'umbaklarida parazitlik qilishga moslashgan. Stafilin qo'ng'izlarning ayrim turlarida jamoa bo'lib yashashga o'xshash xulq-atvor va hatti-harakatlar ham uchraydi. Masalan, *Bledius* va *Platystethus* avlodlari turlari (*Oxytelinae*) hamda *Eumicrota* (*Aleocharinae*) avlodi. Ularning imagolari maxsus kameralar quradi va u erda tuxumlari va lichinkalarini himoya qiladi. Bu uyalar qumda, tuproqda, tuyoqli sutemizuvchilar go'ngida yoki zamburug'lar tanasida bo'lishi mumkin.



1-Coptotermocola clavicornis 2-Neotermitosocius bolivianus 3-Lomechusa spp.

1.3.-Rasm. Staphylin qo'ng'izlarining termitofil (termitlar bilan birga yashaydigan) (1,2) va mirmekofil (chumolilar bilan birga yashaydigan) (3) turlari.

Stafilin qo'ng'izlar orasida xalqaro «Qizil kitob»ga kiritilgan turlari ham mavjud [42,43]. Bunday noyob turlarga quyidagi turlar kiradi:

**1. Serbar stafilin–*Velleius dilatatus***- noyob tur, hayotining barcha davrlari paxmoq arilarning jamoasi bilan bog'langan. Arilardan mustaqil ravishda

yashamaydi, shu sababli ularning soni arilar jamoasisoniga bevosita bog‘liq. O‘rmonlarning ko‘plab kesilishi qo‘ng‘izlar sonining kamayishiga olib kelgan. Evropa davlatlarida tarqalgan. O‘zbekistonda qayd qilinmagan.

**2. Tukdor yirtqich-*Emus hirtus***-noyob va yo‘qolib borayotgan tur. Stafilinlarning eng katta turlaridan biri bo‘lib, ulchami 18-22 mm gacha. Tanasi ingichka, boshi, oldko‘kragi va qornining keyingi yarmi oltinrang-sariq rangda, oldko‘krakning keyingi qismida qora tuklar mavjud. Ko‘kragining pastki qismi siyohrang yoki ko‘k, qora tuklar bilan qoplangan. Ustki qanotlari kuchli qisqargan, qornini yopmaydi. Oyoqlari yuguruvchi tipda, mo‘yloalari to‘g‘nag‘ichsimon. Bu tur Evropa va Kavkazda tarqalgan. O‘zbekistonda qayd qilinmagan. Qo‘ng‘izlar

bahorda faol bo‘ladi. Ular yirtqich-entomofag bo‘lib, pashshalar va boshqa hasharotlarning lichinkalari bilan oziqlanadi. Urg‘ochilari bittadan tuxum qo‘yadi. To‘liq rivojlanishi uchun havo namligi muhim ahamiyatga ega. Lichinkalari yirtqich, kam harakat hasharotlarni, ayniqsa, qo‘ng‘izlarning lichinkalari bilan



**1.4.-Rasm. Tukdor yirtqich-*Emus hirtus***

oziqlanadi. Lichinkalar orasida kannibalizm hodisasi ham kuzatiladi. Qo‘ng‘izlar etuk davrida qishlaydi. Tukdor stafilin kaprofil tur hisoblanadi. Qo‘ng‘izlar dalalarda mollar va otlarning yangi navozi atrofida yuradi, chunki ular turli kaprofaq hasharotlarning lichinkalari va g‘umbaklari bilan oziqlanadi. Qo‘ng‘izlar yaxshi uchadi, uchib borayotgan qo‘ng‘izlar arilarni eslatadi. Arealining turli qismlarida qo‘ng‘izlarning o‘lchami sezilarli farq qiladi. Materiklardagi vakillari uzunroq va semizroq, orollarda tarqalgan vakillari kalta va ingichka, boshi kuchsiz rivojlangan. Hozirgi davrda tukdor stafilin Evropaning ko‘pgina davlatlarida noyob tur sanaladi.

**3.Kaltaqanot stafilin - *Ocypus curtipennis*.** Qrim yarim orolining tog'oldi va tog'li hududlarida tarqalgan. Soni kamayib ketgan noyob tur hisoblanadi.Faqat lokal populyasiyalar holatida uchraydi.Populyasiyasida ham individlar soni kam, bir necha o'ntagacha.

**4. Pliginskiy stafilini- *Tasqius piliginskii*.** Evropaning ayrim davlatlari tarqalgan, kamayib borayotgan tur. Faqat lokal populyasiyalar holatida uchraydi.Populyasiyasida ham individlar soni kam, bir necha o'ntagacha.



Serbar (keng) safilin –(*Velleius dilatatus*)



Kaltaqanot stafilin  
(*Ocypus curtipennis*)



Pliginskiy stafilini-  
*Tasqius piliginskii*

1.5.-Rasm.Stafilin qo'ng'izlarning xalqaro «Qizil kitob» ga kiritilgan turlari

Kaltaustqanotli qo'ng'izlar orasida zaharli turlari ham uchraydi. Bularga ko'kqanot stafilinlar avlodi vakillari misol bo'ladi. Ularning gemolimfasida pederin deb ataluvchi alkaloid mavjud bo'lib, ko'ng'izlar odam terisining ochiq joylariga tegib ketsa, dermatit belgilariga o'xshash simptomlar yuzaga chiqadi: teri qizaradi, achishadi va shishadi. Ayniqsa, *Paederus fuscipes* turi xavfli bo'lib, uning gemoldimfasida tana massasining 0,025% iga teng keladigan pederin saqlanadi.

Kaltaustqanotli qo'ng'izlar orasida merkofiliya, ya'ni boshqa hayvonlar bilan birga



1.6. -Rasm. Zaharli stafilin-  
*Paederus fuscipes*

yashash holatlari ham uchraydi. Ko'pgina turlari chumolilar bilan birga yashashga moslashgan. Ayrim turlari ko'chmanchi chumolilar bilan birga migratsiya qilib yuradi. Chumolilarning *Eciton* avlodi bilan qo'ng'izlarning *Ecitoxenidia*, *Ecitonidia*, *Ecitocala*, *Ecitoxenides*, *Ecitosymbia*, *Ecitoxenia* avlodlari, *Ecitocharini* va *Ecitogastrini* (*Aleocharinae*) tribalari bog'langan, chumolilarning *Dorylus* avlodi vakillari bilan qo'ng'izlarning *Dorylogastrini* va *Dorylomimini* (*Aleocharinae*) avlodlari birga yashashga moslashgan [42,43].

Stafilinlar yoki kaltaustqanotli qo'ng'izlar oilasi vakillari tanasi uzun va ingichka bo'lib, ustqanotlari juda kalta va qorinning faqat 1-2-tergитlarini qoplab turadi. Harakat vaqtida qorin qismi, odatda, yuqoriga va oldinga qayrilgan bo'ladi. Lichinkalari kampodesimon, oyoqlari to'rt bo'g'imdan oshmaydi va tirnog'i to'liq rivojlanmagan. Lichinkaning boshi doimo prognatik, ko'pincha aniq bo'yin bilan ajralgan. Ko'krak bo'g'imlari va boshi qorin bo'g'imlariga nisbatan qattiq skeletlashgan.

Qo'ng'izlar va lichinkalar to'kilgan barglar, toshlar, daraxt po'slog'i ostida, tuproqda, qumda, termitlar va chumolilar uyasida, hatto qushlar va sutemizuvchilar uyasida yashaydi. Ko'pchilik turlari yirtqich, ayrim vakillari parazit. Bular orasida

saprofaglar, kaprofaglar va nekrofaglar ham uchrab turadi. Yirtqich vakillari Aleochara bilineata va Aleochara bipustulata karam pashshasi, piyoz pashshasi va boshqa pashshalarning tuxumi va lichinkalari bilan oziqlanadi. Bu turlarning lichinkalari esa parazit hayot tarziga ega [13]. Oligota oviformis o'rgimchakkananing yirtqichi hisoblanadi.

**Biologiyasi.** Stafilin qo'ng'izlarning biologik xususiyatlari yaxshi o'rganilmagan. Faqatgina ular orasida ahamiyati kattaroq bo'lgan tur Aleochara bilineata biologiyasi keng o'rganilgan. Aleoxaraning lichinkalari karam pashshasi g'umbaklarida parazitlik qiladi, yetuk qo'ng'izlari esa karam pashshasining tuxumlari va 1-yoshdagi lichinkalari bilan oziqlanadi [9,17,25]. Aleoxara karam pashshasi g'umbaklari ichida birinchi yoshdagi lichinka xolatida qishlaydi [15,35]. Lekin u g'umbak holatida yoki yetuk davrida ham qishlashi mumkin [4,28].

Aleoxara qo'ng'izlarining karam pashshasi g'umbaklaridan uchib chiqishi va tuxum qo'yishga kirishishi tabiatda karam pashshasi g'umbaklarining paydo bo'lish davriga mos keladi. Bu jarayon iyun oyiga to'g'ri keladi [20,27]. Qo'ng'izlar tuproqqa, o'simlik ildizining atrofiga tuxum qo'yadi. Tuxumdan chiqqan lichinkalar shu zahoti karam pashshasi g'umbaklarini qidira boshlaydi. G'umbak topilgach lichinka g'umbak qobig'ini teshib, uning ichiga kirib oladi. G'umbak ichida oziqlanadi va o'sha joyda uzi ham g'umbakka aylanadi. Aleoxara avlodlari soni xo'jayin avlodlari soniga bog'liq bo'ladi [3,36]. Lichinkalar soni ko'p bo'lganda bitta g'umbakka 7-9 tagacha lichinka kirishi mumkin, lekin rivojlanishni faqat bittasi, ba'zan ikkitasi tugata oladi, qolgan lichinkalar rivojlanishdan orqada qoladi va halok bo'ladi [11,12].

## **Fenologiya**

O'rtacha harorat 10<sup>0</sup>S bo'lganda aleoxara bitta avlodining rivojlanishi uchun 143-275 kun zarur bo'ladi. Bu ko'rsatkich 15<sup>0</sup>S haroratda-63-72 kunni, 20<sup>0</sup>S da – 29-33 kunni, 25<sup>0</sup>S da – 22-27 kunn i tashkil etadi.30<sup>0</sup>S haroratda rivojlanish sodir bo'lmaydi [5].Tabiiy sharoitda aleoxara 2-4 ta avlod berib rivojlanadi.

Aleoxara yetuk imago davrida juda ochko'z va bir sutkada karam pashshasining o'rtacha 39,9 ta tuxumini yoki 0,55 ta 3-yoshdagi lichinkasini istemol qilishi mumkin [27]. F.Z.Xalimov (2001) tomonidan o'tkazilgan laboratoriya tajribalarida aleoxara qo'ng'izlari yirtqich:o'lja nisbati 1:50 va 1:100 bo'lganda o'rtacha 45,66 va 82 ta tuxum iste'mol qilgan.

Aleoxara polifag hasharotlar jumlasiga kiradi. Tabiiy sharoitlarda karam pashshasidan tashqari bir qancha pashshalarning, jumladan, lavlagi pashshasi [20], piyoz pashshasi [21]va hatto kulrang go'sht pashshasi [28] ning paraziti va yirtqichi hisoblanadi. Aleoxaraning laboratoriya sharoitida yoppasiga ko'paytirish usuli ishlab chiqilgan va u karam pashshasiga qarshi kurashda qo'llaniladi [6].

Kaltaustqanotli qo'ng'izlarning yirtqichlik faoliyati haqida ma'lumotlar ancha kam bo'lsada, ular karam pashshasi va boshqa tuproqda tuxum qo'yuvchi zararkunandalar sonini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega [1,2,8,29].

Agrosenozlarda stafilin qo'ng'izlarning tur tarkibini aniqlash bo'yicha bar qancha tadqiqotlar ham o'tkazilgan.

Leningrad viloyatida karamdoshlar oilasiga mansub ekinlar agrosenozlarida Staphylinidae oilasiga mansub 32 tur yirtqich qo'ng'izlar qayd qilingan va ular orasida son jihatidanOxytellus rugosus, Philonthus eruentatus dominantlik qiladi [14].

Qozoqistonning Kustanay viloyatida sabzavot ekinlari agrosenozlarida yirtqich qo'ng'izlarning 30 turi tarqalganligi qayd qilingan. Ular orasida ko'p sonliligi bilan stafilin qo'ng'izlarning Phylontus, Oxitelus va Aleochara avlodi turlari ajralib turadi [16].

Sabzavot ekinlari agrosenozlarida esa kaltaustqanotli (Staphylinidae) qo'ng'izlarning 14 avlodga mansub 27 turi aniqlangan. Karam agrosenozlarida

kaltaustqanotli qo'ng'izlardan *Aleochara bilineata*, *Aloconota gregagia*, *Amischa analis*, *Amischa bifoveolata* va *Atheta fungi* son jihatidan dominantlik qiladi [34].

**Sistematikasi.** Yuqoridadakidlanganidek, *Staphylinidae* oilasi qo'ng'izlarning eng katta oilalaridan birib o'lib, hozirgi davrda stafilinidlar oilasi 32 ta kenja oila (1 ta kenja oila vakillarifa qatqazilmaholida uchraydi), 400 ga yaqin triba, 3800 atrofida avlodlarni o'zida birlashtiradi. Eng katta kenja oilalari quyidagilar: *Aleocharinae* (12182 tur, 1740 avlod), *Pselaphinae* (8415, 1103), *Staphylininae* (6642, 282), *Paederinae* (5962, 225), *Steninae* (2109, 2), *Osoriinae* (2058, 105), *Oxytelinae* (2000, 48) [38]. Bundantashqari, haryilistafilin qo'ng'izlarning 400 ga yaqin yangi turlari kashf qilinmoqda. Ayrim olimlarning fikricha, tropik mintaqada tarqalgan stafilinlarning 3/4 qismi hozirgacha tavsiflanmagan.

## 1.2.-Jadval

### *Staphylinidae* oilasining sistematikasi

Kenja oila	Triba	Avlod (urug')
Omaliinae MacLeay, 1825	Eusphalerini Hatch, 1957	<i>Eusphalerum</i> Kraatz, 1857
	Omaliini MacLeay, 1825	<i>Acrolocha</i> Thomson, 1858 <i>Acrulia</i> Thomson, 1858 <i>Hapalaraea</i> Thomson, 1858 <i>Hypopycna</i> Mulsant & Rey, 1880 <i>Micralymma</i> Westwood, 1837 <i>Omaliium</i> Gravenhorst, 1802 <i>Phloeonomus</i> Heer, 1839 <i>Phloeostibia</i> Thomson, 1858 <i>Phyllodrepa</i> Thomson, 1859 <i>Pycnoglypta</i> Thomson, 1858 <i>Xylodromus</i> Heer, 1839 <i>Xylostibia</i> Ganglbauer, 1895
	Anthophagini Thomson, 1859 (= Brathininae LeConte, 1861)	<i>Acidota</i> Stephens, 1829 <i>Anthobium</i> Samouelle, 1819 <i>Brathinus</i>

	Coryphiini Portevin, 1929	<i>Boreaphilus</i> Sahlberg, 1832 <i>Coryphium</i> Stephens, 1834 <i>Coryphiomorphus</i> Zerche, 1988 <i>Eudectus</i> Redtenbacher, 1856
Proteininae Erichson, 1839		<i>Megarthus</i> Curtis, 1829 <i>Metopsia</i> Wollaston, 1854 <i>Proteinus</i> Latreille, 1796
Micropeplinae Leach, 1815		<i>Arrhenopeplus</i> Koch, 1937 <i>Micropeplus</i> Latreille, 1809
Pselaphinae Latreille, 1802	Euplectini LeConte, 1861	<i>Biblopectus</i> Reitter, 1882 <i>Bibloporus</i> Thomson, 1859 <i>Euplectus</i> Leach, 1817 <i>Leptoplectus</i> Casey, 1908 <i>Meliceria</i> Raffray, 1898 <i>Plectophloeus</i> Reitter, 1891 <i>Pseudoplectus</i> Reitter, 1881 <i>Saulcyella</i> Reitter, 1901 <i>Trimium</i> Aubé, 1833
	Batrisini Reitter, 1882	<i>Batrisodes</i> Reitter, 1882 <i>Batrisus</i> Aubé, 1833
	Goniacerini Reitter, 1882 (1872)	<i>Amauronyx</i> Reitter, 1881 <i>Brachygluta</i> Thomson, 1859 <i>Bryaxis</i> Kugelann, 1794 <i>Bythinus</i> Leach, 1817 <i>Reichenbachia</i> Leach, 1826 <i>Rybaxis</i> Saulcy, 1876 <i>Trichonyx</i> Chaudoir, 1845 <i>Trissemus</i> Jeannel, 1949 <i>Tychus</i> Leach, 1817
	Pselaphini Latreille, 1802	<i>Centrotoma</i> Heyden, 1849 <i>Chennium</i> Latreille, 1807 <i>Pselaphaulax</i> Reitter, 1909 <i>Pselaphus</i> Herbst, 1792 <i>Tyrus</i> Aubé, 1833
	Clavigerini Leach, 1815	<i>Claviger</i> Preysler, 1790
Phloeocharinae Erichson, 1839		<i>Phloeocharis</i> Mannerheim, 1830
Olisthaerinae Thomson, 1859		<i>Olisthaerus</i> Dejean, 1833
Tachyporinae MacLe	Mycetoporini Thoms	<i>Bolitobius</i> Samouelle, 1819

ay, 1825	on, 1859 (= Bolitobiini Horn, 1877)	<i>Bryophacis</i> Reitter, 1857 <i>Bryoporus</i> Kraatz, 1857 <i>Carphacis</i> Des Gozis, 1886 <i>Ischnosoma</i> Stephens, 1829 <i>Lordithon</i> Thomson, 1859 <i>Mycetoporus</i> Mannerheim, 1830
	Tachyporini MacLeay, 1825	<i>Cilea</i> Jacquelin du Val, 1856 <i>Coproporus</i> Kraatz, 1858 <i>Lamprinodes</i> Luze, 1901 <i>Lamprinus</i> Heer, 1839 <i>Sepedophilus</i> Gistel, 1856 <i>Tachinus</i> Gravenhorst, 1802 <i>Tachyporus</i> Gravenhorst, 1802
Habrocerinae Mulsant & Rey, 1875		<i>Habrocerus</i> Erichson, 1839
Trichophyinae Thomson, 1859		<i>Trichophya</i> Mannerheim, 1830
Aleocharinae Fleming, 1821	Dorylogastrini Wasmann 1916	<i>Berghoffia</i> Kistner, 2003 <i>Dorylogaster</i> Wasmann, 1904
	Dorylomimini Wasmann 1916	<i>Dorylocratus</i> Wasmann, 1916 <i>Dorylomimus</i> Wasmann, 1902 <i>Dorylonannus</i> Wasmann, 1916 <i>Jeanneliusa</i> Bernhauer, 1936
	Ecitocharini Seevers, 1965	<i>Campbellia</i> Kistner & Jacobson, 1990 <i>Ecitochara</i> Wasmann, 1887 <i>Ecitodaemon</i> Reichensperger, 1939 <i>Ecitomorpha</i> Wasmann, 1889 <i>Ecitophya</i> Wasmann, 1900 <i>Ecitoschneirla</i> Kistner & Jacobson, 1990 <i>Ecitosymbia</i> Bruch, 1923 <i>Ecitoxenia</i> Wasmann, 1900 <i>Retteneciton</i> Kistner & Jacobson, 1990 <i>Seeverseciton</i> Kistner & Jacobson, 1990
	Ecitogastrini Fenyés, 1918	<i>Ecitogaster</i> Wasmann, 1900
	Aleocharini Fleming, 1821	<i>Aleochara</i> Gravenhorst, 1802 <i>Tinotus</i> Sharp, 1883
	Oxypodini Thomson,	<i>Acrostiba</i> Thomson, 1858

<p>1859 <i>k/triba</i> <i>Oxypodina</i> Thomson, 1859</p> <p><i>k/triba</i> <i>Dinardina</i> Mulsant &amp; Rey, 1873 <i>k/triba Meoticina</i> Seevers, 1978 <i>k/triba</i> <i>Tachyusina</i> Thomson , 1859</p>	<p><i>Amarochara</i> Thomson, 1858 <i>Calodera</i> Mannerheim, 1830 <i>Cephalocousya</i> Lohse, 1971 <i>Chanoma</i> Blackwelder, 1952 <i>Chilomorpha</i> Krasa, 1914 <i>Crataraea</i> Thomson, 1858 <i>Devia</i> Blackwelder, 1952 <i>Dexiogyra</i> Thomson, 1858 <i>Haploglossa</i> Kraatz, 1856 <i>Hygropora</i> Kraatz, 1856 <i>Ilyobates</i> Kraatz, 1856 <i>Ischnoglossa</i> Kraatz, 1856 <i>Mniusa</i> Mulsant &amp; Rey, 1875 <i>Ocalea</i> Erichson, 1837 <i>Ocyusa</i> Kraatz, 1856 <i>Oxypoda</i> Mannerheim, 1830 <i>Parocyusa</i> Bernhauer, 1902 <i>Pentanota</i> Bernhauer, 1905 <i>Phloeopora</i> Erichson, 1837 <i>Poromniusa</i> Ganglbauer, 1895 <i>Pyroglossa</i> Bernhauer, 1901 <i>Stichoglossa</i> Fairmaire &amp; Laboulbene, 1856 <i>Thiasophila</i> Kraatz, 1856</p> <p><i>Dinarda</i> Samouelle, 1819</p> <p><i>Meotica</i> Mulsant &amp; Rey, 1873</p> <p><i>Brachyusa</i> Mulsant &amp; Rey, 1874 <i>Dasygnypeta</i> Lohse, 1974 <i>Gnypeta</i> Thomson, 1858 <i>Ischnopoda</i> Stephens, 1835</p>
<p>Athetini Casey, 1910</p>	<p><i>Acrotona</i> Thomson, 1859 <i>Actophylla</i> Bernhauer, 1908 <i>Alevonota</i> Thomson, 1856 <i>Alianta</i> Thomson, 1858 <i>Aloconota</i> Thomson, 1858 <i>Amischa</i> Thomson, 1858 <i>Anopleta</i> Mulsant &amp; Rey, 1874 <i>Atheta</i> Thomson, 1858 <i>Brundinia</i> Tottenham, 1949</p>

	<p><i>Cadaverota</i> Yosii &amp; Sawada, 1976  <i>Callicerus</i> Gravenhorst, 1802  <i>Coprothassa</i> Thomson, 1859  <i>Dacrila</i> Mulsant &amp; Rey, 1874  <i>Dadobia</i> Thomson, 1856  <i>Dilacra</i> Thomson, 1858  <i>Dinaraea</i> Thomson, 1858  <i>Disopora</i> Thomson, 1859  <i>Dochmonota</i> Thomson, 1859  <i>Geostiba</i> Thomson, 1858  <i>Halobrecta</i> Thomson, 1858  <i>Hydrosmecta</i> Thomson, 1858  <i>Liogluta</i> Thomson, 1858  <i>Lundbergia</i> Muona, 1975  <i>Lyprocorrhe</i> Thomson, 1859  <i>Nehemitropia</i> Lohse, 1971  <i>Ousipalia</i> Des Gozis, 1886  <i>Pachnida</i> Mulsant &amp; Rey, 1874  <i>Pachyatheta</i> Munster, 1930  <i>Paranopleta</i> Brundin, 1954  <i>Philhygra</i> Mulsant &amp; Rey, 1873  <i>Pycnota</i> Mulsant &amp; Rey, 1874  <i>Schistoglossa</i> Kraatz, 1856  <i>Thamiaraea</i> Thomson, 1858  <i>Tomoglossa</i> Kraatz, 1856  <i>Trichiusa</i> Casey, 1856  <i>Trichomicra</i> Brundin, 1941</p>
Falagriini Mulsant & Rey, 1873	<p><i>Borboropora</i> Kraatz, 1862  <i>Falagria</i> Samouelle, 1819  <i>Myrmecopora</i> Saulcy, 1865  <i>Bohemiellina</i> Machulka, 1941  <i>Anaulacaspis</i> Ganglbauer, 1895  <i>Cordalia</i> Jacobs, 1925  <i>Falagrioma</i> Casey, 1906  <i>Myrmecocephalus</i> MacLeay, 1871</p>
Lomechusini Fleming, 1821 (= Myrmedoniini Thomson, 1867)	<p><i>Drusilla</i> Samouelle, 1819  Lomexuza (<i>Lomechusa</i> GRAVENHORST, 1806)  <i>Lomechusoides</i> Tottenham, 1939  <i>Zyras</i> Stephens, 1835</p>
Homalotini Heer, 1839 <i>k/triba Gyrophaenina</i>	<p><i>Agaricochara</i> Kraatz, 1856</p>

	Kraatz, 1856 <i>k/triba</i> <i>Bolitocharina</i> Thomson, 1859	<i>Encephalus</i> Kirby, 1832 <i>Gyrophaena</i> Mannerheim, 1830  <i>Bolitochara</i> Mannerheim, 1830 <i>Euryusa</i> Erichson, 1837 <i>Heterota</i> Mulsant & Rey, 1874 <i>Leptusa</i> Kraatz, 1856 <i>Phymatura</i> J. Sahlberg, 1876 <i>Tachyusida</i> Mulsant & Rey, 1872 <i>Silusa</i> Erichson, 1837  <i>Anomognathus</i> Solier, 1849
	<i>k/triba</i> <i>Silusina</i> Fenyes, 1918	
	<i>k/triba</i> <i>Homalotina</i> Heer, 1839	<i>Homalota</i> Mannerheim, 1830 <i>Pseudomicrodota</i> Machulka, 1935 <i>Thecturota</i> Casey, 1893 <i>Rhopalocerina</i> Reitter, 1909 <i>Clavigera</i> Scriba, 1859 <i>Cyphea</i> Fauvel, 1863
	Placusini Mulsant & Rey, 1871	<i>Placusa</i> Erichson, 1837
	Autaliini Thomson, 1859	<i>Autalia</i> Samouelle, 1819
	Phytosini Thomson, 1867	<i>Arena</i> Fauvel, 1862 <i>Phytosus</i> Curtis, 1838
	Diglottini Jacobson, 1909	<i>Diglotta</i> Champion, 1887
	Hygronomini Thomson, 1859	<i>Hygronoma</i> Erichson, 1837
	Hypocyphtini Laporte de Castelnau, 1835 (= Oligotini Thomson, 1859)	<i>Cypha</i> Samouelle, 1819 <i>Holobus</i> Solier, 1849 <i>Oligota</i> Mannerheim, 1830
	Triba Myllaenini Ganglbauer, 1895	<i>Myllaena</i> Erichson, 1837
	<i>Triba</i> <i>Gymnusini'</i> Heer, 1839	<i>Gymnusa</i> Gravenhorst, 1806
	Triba Deinopsini Sharp, 1883	<i>Deinopsis</i> Matthews, 1838
Scaphidiinae	Scaphidiini Latreille,	<i>Scaphidium</i> Olivier, 1790

Latreille, 1807	1807	
	Scaphisomatini Casey, 1894	<i>Scaphisoma</i> Leach, 1815
Oxytelinae Fleming, 1821	Delasterini Reitter, 1909	<i>Deleaster</i> Erichson, 1839 <i>Syntomium</i> Curtis, 1828
	Cophrophilini Heer, 1839	<i>Cophophilus</i> Latreille, 1829 Coprostygus Coprotrichus Homalotrichus
	Thinobiini J. Sahlberg, 1876	<i>Aploderus</i> Stephens, 1833 <i>Bledius</i> Samouelle, 1819 <i>Carpelimus</i> Kirby, 1819 <i>Manda</i> Blackwelder, 1952 <i>Ochtheophilus</i> Mulsant & Rey, 1856 <i>Planeustomus</i> Jacquelin du Val, 1857 <i>Thinobius</i> Kiesenwetter, 1844 <i>Thinodromus</i> Kraatz, 1858
	Oxytelini Fleming, 1821	<i>Anotylus</i> Thomson, 1859 <i>Oxytelus</i> Gravenhorst, 1802 <i>Platystethus</i> Mannerheim, 1830
Oxyporinae Fleming, 1821		<i>Oxyporus</i> FABRICIUS, 1775
Steninae MacLeay, 1825		<i>Dianous</i> Samouelle, 1819 <i>Stenus</i> Latreille, 1796
Euaesthetinae Thomson, 1859		<i>Edaphus</i> Motschulsky, 1857 <i>Euaesthetus</i> Gravenhorst, 1806
Paederinae Fleming, 1821		<i>Achenium</i> Leach, 1819 <i>Astenus</i> Stephens, 1833 <i>Chloecharis</i> Lynch, 1884 <i>Lathrobium</i> Gravenhorst, 1802 <i>Lithocharis</i> Dejean, 1833 <i>Luzea</i> Blackwelder, 1952 <i>Medon</i> Stephens, 1833 <i>Ochthephilum</i> Stephens, 1829 <i>Paederidus</i> Mulsant & Rey, 1877 <i>Paederus</i> FABRICIUS, 1775 <i>Pseudomedon</i> Mulsant & Rey, 1877

		<i>Rugilus</i> Samouelle, 1819 <i>Scopaeus</i> Erichson, 1840 <i>Sunius</i> Stephens, 1829
Staphylininae Latreille, 1802	Xantholinini Erichson, 1839	<i>Gauropterus</i> Thomson, 1856 <i>Gyrophypnus</i> Mannerheim, 1830 <i>Hypnogyra</i> Casey, 1906 <i>Leptacinus</i> Erichson, 1839 <i>Leptophius</i> Coiffait, 1983 <i>Megalinus</i> Mulsant & Rey, 1877 <i>Nudobius</i> Thomson, 1860 <i>Phacophallus</i> Coiffait, 1956 <i>Xantholinus</i> Dejean, 1821
	Othiini Thomson, 1859	<i>Atrecus</i> Jacquelin du Val, 1856 <i>Othius</i> Stephens, 1839
	Philonthini Kirby, 1837	<i>Bisnius</i> Stephens, 1829 <i>Cafius</i> Stephens, 1829 <i>Erichsonius</i> Fauvel, 1874 <i>Gabrius</i> Stephens, 1833 <i>Gabronthus</i> Tottenham, 1955 <i>Neobisnius</i> Ganglbauer, 1895 Filontы ( <i>Philonthus</i> CURTIS, 1829) <i>Rabigus</i> Mulsant & Rey, 1876 <i>Remus</i> Holme, 1837
Staphylinini <i>k/triba</i> <i>Staphylinina</i> Latreille, 1802		<i>Creophilus</i> LEACH Стафилинпадалны ( <i>Creophilus</i> <i>maxillosus</i> LINNAEUS) <i>Dinothenarus</i> Thomson, 1858 Стафилинпушисты ( <i>Dinothenarus pubescens</i> DE GEER) <i>Emus</i> SAMOUELLE, 1819 Стафилинволосаты ( <i>Emus</i> <i>hirtus</i> LINNAEUS) <i>Ocypus</i> SAMOUELLE, 1819 Стафилинпaxучий ( <i>Ocypus</i> <i>olens</i> MULLER) <i>Ontholestes</i> Ganglbauer, 1895 <i>Platydracus</i> Thomson, 1858 Стафилины ( <i>Staphylinus</i> LINNAEUS, 1758 )

		<p>Стафилины (Staphylinus caesareus CEDERHJELM)  <i>Tasgius</i> Stephens, 1829</p> <p><i>Acylophorus</i> Nordmann, 1837  <i>Euryporus</i> Erichson, 1839  <i>Heterothops</i> Stephens, 1829  <i>Quedius</i> Stephens, 1829  <i>Velleius</i> Samouelle, 1819</p>
	<p>к/триба  <i>Quediina</i> Kraatz,  1858</p>	
	<p>Tanygnathini Reitter,  1909</p>	<p><i>Atanygnathus</i> Jacobson, 1909</p>

## **2. Tadqiqotob'ekti, uslublarivasharoitlari**

### **2.1. Tadqiqotob'ekti, maqsadivavazifasi**

**Tadqiqotob'ekti** - sabzavotvapolizekinlari, boshhoqliekinlaragrosenozlaridatarqalganStaphylinidaeoilasigamansubyirtqichqo'ng'izlar

#### **Tadqiqotningmaqsadivavazifasi.**

SamarqandviloyatiTayloqtumanisabzavot ekinlarivabug'doymaydonlaridauchraydigankaltaustqanotli yirtqichqo'ng'izlarningturtarkibi, biologiyasi, ekologiyasi, mavsumiydinamikasi, trofikaloqalarivaulardanzararkunandahashoratlargaqarshikurashdafoydalanishimko niyatlarinitahlilqilishvao'rganishdaniborat.

